

## MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

Keyingi o‘rinlarda “Maxsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi” deb ataladigan **"YUKSALISH UNIVERSAL BIZNES MARKAZ" MЧЖ** xodimi **S.O‘rshov** orqali bir tomondan, keyingi o‘rinlarda “Sotib oluvchi” deb ataladigan **“Jalaqauduq tuman maktabgacha ta‘lim bo‘limi mudiri” M.Ismoilova** tomondan quyidagilar to‘g‘risida ushbu shartnomani tuzdilar:

### 1. Shartnoma predmeti

#### 1.1

T/R №	Maxsulot nomi	Lot №	Olchov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy qiymati
1	guruch		kg	6530	12 470	81 429 100
	jami					81 429 100

1.2 Shartnomaning umumiy summasi 81 429 100(sakson bir million to‘rt yuz yigirma to‘qqiz ming bir yuz) so‘m belgilandi (summaga transport xarajatlari kirmaydi).

1.3. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, ularning har biri bir xil kuchga ega.

### 2. Tovarlar yetkazib berish tartibi

2.1. Shartnoma bo‘yicha tovarlarni yetkazib berish tovarlarni sotib oluvchiga jo‘natish yo‘li bilan jo‘natish raznaryadkasi orqali amalga oshiriladi.

2.2. Jo‘natish raznaryadkasining jadvali shartnomaga ilova qilinadi.

2.3. Tovarlar faqat **"YUKSALISH UNIVERSAL BIZNES MARKAZ" MЧЖ** qarashli avtomashinada yetkazilishi kerak. Tovarlar qoplarda olib kelinib, qoplar sotuvchiga qaytarilmaydi.

2.4. Tovar yetkazib berishning ayrim davrida uni to‘liq yetkazib bermagan tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi yetkazib berilmagan tovarlar miqdorini shartnoma amal qilish muddati doirasidagi keyingi davrda yoki davrlarda to‘ldirishi lozim.

2.5. Sotib oluvchi yetkazib berish muddati o‘tkazib yuborilgan tovarlarni qabul qilishni rad etishga haqli emas.

2.6. Sotib oluvchi shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarning qabul qilinishini ta‘minlaydigan barcha zarur harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Sotib oluvchi sotib olgan tovarlarni tovarlar yetkazib berilganidan keyin darhol ko‘zdan kechirishi, agarda yetkazib berish bilan bog‘liq kamchiliklar aniqlangan taqdirda, tovar yetkazib beruvchi-sotuvchini zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

### 3. Xisob-kitob qilish tartibi

3.1. Xisob –kitob «Xaridor»ga tomonidan pul o‘tkazish yuli bilan amalga oshiriladi.

3.2. Shartnoma kuchga kirib, tegishli G‘aznachilik bo‘limidan ro‘yxatdan utkazilgadan so‘ng 5 bank ish kunida «Xaridor» yetkazib beriladigan maxsulotlarning umumiy summasining 30% ya‘ni 24 428 730 (yigirma to‘rt million to‘rt yuz yigirma sakkiz ming etti yuz o‘ttiz) so‘m oldindan (avans) tariqasida «Ta‘minotchi» ning xisob raqamiga o‘tkazib beradi.

3.3. Qolgan oxirigi 70% 57 000 370 (ellik etti million uch yuz etmish) so'mni Ta'minotchi» tomonidan yetkazib berilgan maxsulotlar xisob varaq fakturalari asosida 90 bank ish kunida o'tkazib beradi.

3.4 «Xaridor» tomonidan 30% 24 428 730 (yigirma to'rt million to'rt yuz yigirma sakkiz ming etti yuz o'ttiz) so'm oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng «Ta'minotchi» 3 bank ish kuni davomida mazkur shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va narxlarda Davlat standarti, gigiyena talablariga javob beradigan, maxsulotlarni «Xaridor» ga yetkazib beradi.

3.5. Maxsulotlarni yetkazib berish xarajati «Ta'minotchi» xisobidan koplanadi

#### 4. Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari

##### 4.1. Sotuvchining huquqlari:

- sotilgan tovar haqini to'lashni;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni;
- sotib oluvchi tomonidan o'ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

Sotib oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan asoslarsiz mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchidan tovarni qabul qilib olmagan yoki tovarni rad etgan hollarda mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi sotib oluvchidan tovar haqini to'lashni talab qilishga haqli.

##### 4.2. Sotuvchining majburiyatlari:

- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;
- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

##### 4.3. Sotib oluvchining huquqlari:

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni talab qilish.

##### 4.4. Sotib oluvchining majburiyatlari:

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;
- sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart.

#### 5. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

5.1. Agar sotib oluvchiga uning talabiga ko'ra sotish joyida darhol tovar to'g'risidagi axborotni olish imkoni berilmagan yoxud uning tovarni ko'zdan kechirish, tovarning xossalarini tekshirish yoki tovardan foydalanishni ko'rsatishni talab qilish



huquqi ta'minlanmagan bo'lsa, u chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortilgani tufayli o'zi ko'rgan zararni to'lashni sotuvchidan talab qilishga, agar shartnoma tuzilgan bo'lsa, oqilona muddatda shartnomani bajarishdan bosh tortishga, tovar uchun to'langan summani qaytarishni va zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sotib oluvchiga tovar to'g'risida tegishli axborot olish imkonini bermagan sotuvchi tovar sotib oluvchiga topshirilganidan so'ng tovarda paydo bo'lgan kamchiliklar uchun ham, agar sotib oluvchi bu kamchiliklar o'zida bunday axborot bo'lmagani sababli paydo bo'lganini isbotlasa, javobgar bo'ladi.

5.2. Agarda tovar sotib oluvchiga idishsiz va o'ramagan holda yoki tegishli idishga joylamagan va tegishli darajada o'ramagan holda topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan tovarni idishga joylashtirish va o'rashni yoxud tegishli bo'lmagan idish va o'rashni almashtirishni talab qilish yoki bu talablarni qo'yish o'rniga ushbu shartnomaning 4.3-bandi birinchi qismidagi talablarni qo'yishga haqli.

5.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 434-moddasiga ko'ra sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lmagan tovar sotilganida, agar uning kamchiliklari shartnoma tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra:

xuddi shu markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

xarid narxini tegishincha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlar qoplanishini;

xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni;

ko'rilgan zarar o'rnini qoplagan holda shartnoma bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtda sotuvchi undan tovardan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha

pasaygan bo'lsa, shuncha summani ushlab qolishga haqli emas.

5.4. Sotuvchi shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarmagan taqdirda, zararni qoplash va neustoyka to'lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

5.5. Agarda sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilmasa, sotuvchi shartlar buzilganligi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.6. Tovarlarini to'liq yetkazib bermaganlik yoki yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik uchun neustoyka penya shaklida undiriladi. Bunda penyaning miqdori har bir yetkazib berilmagan yoki yetkazib berish muddatlari buzilgan tovarlar umumiy summasining 0,5 % (foizi) miqdorida majburiyat amalda bajarilguniga qadar undiriladi. biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.



5.7 To'lov talabnomasi aktseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to'lashdan bosh tortganlik uchun buyurtmachi bajaruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi bajaruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 %foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 %foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.8. Shartnomani bajarishdan bir tomonlama (to'liq yoki qisman) bosh tortishga tarafdardan biri shartnomani jiddiy buzgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Shartnomani buzish quyidagi hollarda jiddiy deb topiladi:

- tegishli darajada sifatli bo'lmagan, sotib oluvchi uchun maqbul muddatda bartaraf qilib bo'lmaydigan kamchiliklarga ega bo'lgan tovarlarni yetkazib berish;
- tovarlarni yetkazib berish muddatlarini bir necha bor buzish.

5.9. Agar mahsulot yetkazib berish shartnomasini bekor qilish yoki o'zgartirishning boshqa muddati bildirish xatida nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnoma bir taraf boshqa tarafdin shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bir tarafdama bosh tortish to'g'risida bildirish xati olgan paytdan boshlab o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

## 6. Fors-major holatlar

6.1. Mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmay kuch ta'siri: tovar yetkazilayotgan paytda sodir bo'lgan tasodifiy shikastlanish, sotib oluvchi egaligida suv tegishi natijasida tovarning yomon holatga kelishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

## 7. Korrupsiyaviy omillar

7.1. Tomonlar, ularning kafillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

7.2. Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

7.3. Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

7.4. Xabarni olgan tomon xaqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega

7.5. Pora berish evaziga ikkinchi tomon vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'irib olgan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

## 8. Shartnoma muddati.

8.1.Shartnoma imzolangan kundan va tegishli xududiy g'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingandan so'ng, kuchga kirib 31 dekabr 2022- yilgacha amal qiladi.

9.Taraflarning rekvizitlari

"YUKSALISH UNIVERSAL BIZNES MARKAZ" MCHJ

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani

X.R:202080007050708120001

STIR:306386512

MFO:01072

S.O'rishov

Jalaquduq tuman MTB

Manzil:Jalaquduq t.Tuyalas MFY


STIR: 305156434

X.R:100022860032117091100251081

“Markaziy ” bankning

bo'limida, bank kodi 00014



	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	МУБОРАКХОН ИСМОИЛОВА РАХИМБЕРДИЕВНА
	Imzolangan sana	17.12.2022 14:17
	Hujjat kodi	<b>SF1466473676</b>
	Hulosa kodi	<b>VW7611657502</b>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN  
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

VV7611657502

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **DMTT larga guruch zaxirasi shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: "JALAQUDUQ TUMAN MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI" DAVLAT MUASSASASI tomonidan 16.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Jalaquduq tumani  
yuridik markazi  
markaz rahbari:**



**B.V.URINBAYEV**

16.12.2022



**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 200578 на приобретение Жалакудук туман ДМТТларга захира учун гуруч махсулоти**

Способ проведения электронный

Дата 06.12.2022

Время рассмотрения 06.12.2022 17:06

Закупочная комиссия Жалакудук тумани Мактабгача таълим булими.Маъмур, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	ISLOMOVA NILUFAR RASULOVNA	хисобчи	МТБ
<b>Секретарь комиссии</b>	KAYUMOVA ODINAXON DILMUROD QIZI	шартнома мутахасиси	МТБ
<b>Член комиссии</b>	ALIMOVA NARGIZA SHUKURJONOVNA	Материальной хисобчи	Вода
<b>Член комиссии</b>	AXMADJONOV ILXOMJON BAXRAMJON O'G'LI	хисобчи	МТБ
<b>Член комиссии</b>	BABARAXIMOVA NODIRAXON BAXRAMJON QIZI	таъминотчи	МТБ
<b>Член комиссии</b>	TURABAYEV ISMOILJON MUMINJONOVICH	хужалик мудир	МТБ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 06.12.2022 года № лота 200578.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Рис
Подробное описание	сифатли
Количество товара	6 530.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	13 000.00
Стартовая сумма	84 890 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Махсулот етказиб берувчи фермр хужалиги булиши керак

Тип: Бинарное значение

Описание: Махсулот етказиб берувчи фермр хужалиги булиши керак

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>YUKSALISH UNVERSAL BIZNES MARKAZ</b>	20	1	15	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
«Jasminaxon Omad Yuksalish» MCHJ	20	1	15	Экспертная		

Критерий №2 Коррупсия холатларига йўл қўймаслик ҳақида кафолат хати

Тип: Бинарное значение

Описание: Коррупсия холатларига йўл қўймаслик ҳақида кафолат хати

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>YUKSALISH UNVERSAL BIZNES MARKAZ</b>	20	1	15	Экспертная		
«Jasminaxon Omad Yuksalish» MCHJ	20	1	15	Экспертная		

Критерий №3 Махсулотни МТБ комиссия аъзоларига олиб келиб курсатиши керак

Тип: Бинарное значение

Описание: Махсулотни МТБ комиссия аъзоларига олиб келиб курсатиши керак

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>YUKSALISH UNVERSAL BIZNES MARKAZ</b>	20	1	15	Экспертная		
«Jasminaxon Omad Yuksalish» MCHJ	20	1	15	Экспертная		

Критерий №4 Етказиб берадигон махсулотнинг мувофиклик сертификати булиши керак

Тип: Бинарное значение

Описание: Етказиб берадигон махсулотнинг мувофиклик сертификати булиши керак

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>YUKSALISH UNVERSAL BIZNES MARKAZ</b>	20	1	0	Экспертная		
«Jasminaxon Omad Yuksalish» MCHJ	20	1	0	Экспертная		

Критерий №5 Солик ва банкдан карзлари мавжуд эмаслиги тугрисида маълумотнома шу кун холатига

Тип: Бинарное значение

Описание: Солик ва банкдан карзлари мавжуд эмаслиги тугрисида маълумотнома шу кун холатига

Обязательность: Не критично



Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>YUKSALISH UNIVERSAL BIZNES MARKAZ</b>	20	1	15	Экспертная		
<b>«Jasminaxon Omad Yuksalish» MCHJ</b>	20	1	15	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
<b>YUKSALISH UNIVERSAL BIZNES MARKAZ</b>	84 890 000.00	81 429 100.00 UZS	81 429 100.00	00.00	81 429 100.00	06.12.2022 12:10:34	10
<b>«Jasminaxon Omad Yuksalish» MCHJ</b>	84 890 000.00	82 931 000.00 UZS	82 931 000.00	00.00	82 931 000.00	06.12.2022 12:18:12	9.8189

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
<b>YUKSALISH UNIVERSAL BIZNES MARKAZ</b>	54	10	64
<b>«Jasminaxon Omad Yuksalish» MCHJ</b>	54	9.8189	63.8189

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 200578 от 06.12.2022 года на приобретение Жалакудук туман ДМТТларга захира учун гуруч махсулоти определила победителем:

YUKSALISH UNIVERSAL BIZNES MARKAZ  
306386512

и резервный исполнитель: «Jasminaxon Omad Yuksalish» MCHJ (304959155)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	ISLOMOVA NILUFAR RASULOVNA	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	ALIMOVA NARGIZA SHUKURJONOVNA	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	AXMADJONOV ILXOMJON BAXRAMJON O'G'LI	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	BABARAXIMOVA NODIRAXON BAXRAMJON QIZI	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП